



## HOZIRGI PAYTDA TURKIYA RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING USTIVOR YO'NALISHLARI

*Isomiddinov Asliddin Baxridin o'g'li*

*Andijon davlat chet tillari instituti p.f.f.d (PhD)*

+998880706050 [asliddinisomiddinov0505@gmail.com](mailto:asliddinisomiddinov0505@gmail.com)

*Raxmatjon Ismoilov Axmadjonovich*

*Andijon viloyati Marxamat tumani xokim yordamchisi*

+998973460705 [rahmetcan@mail.ru](mailto:rahmetcan@mail.ru)

**Annotatsiya:** maqolada Turkiyaning tashqi siyosati xususiyatlari ko'rib chiqilgan hamda Anqaraning mintaqaviy va global jarayonlarga ta'sirini tahlil qilishga harakat qilingan. Bugungi kunda Turkiya o'zini asosiy geosiyosiy jarayonlarga jalb qilingan global ijrochi sifatida ko'rsatmoqda. Xulosa sifatida, harbiy-siyosiy salohiyatning yumshoq kuch bilan uyg'unligi Anqaraga o'zini nufuzli mintaqaviy va global yetakchi sifatida mustahkamlash imkonini beradi. Muallif Turkiyaning yaqin kelajakdagi tashqi siyosatining ehtimoliy yo'nalishlarini bashorat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Turkiya, tashqi siyosat, G'arb, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, geosiyosat, mintaqaviy siyosat, globalizatsiya, iqtisodiy integratsiya.

**Abstract:** The article examines the features of Turkey's foreign policy and attempts to analyze Ankara's influence on regional and global processes. Today, Turkey's positions itself as a global player, involved in key geopolitical processes. The conclusion is that the combination of military and political potential with soft power gives Ankara the opportunity to assert itself as an authoritative regional and global leader. The author predicts possible directions for Turkey's foreign policy in the near future.



**Key words:** Turkey, foreign policy, West, Middle East, Central Asia, geopolitics, regional policy, globalization, economic integration.

Sovuq urushdan keyingi davrda xalqaro tizimda yuzaga kelgan o'zgarishlar davlatlarining ko'pchiligini o'z tashqi siyosatlarini va mintaqaviy rollarini qaytadan ko'rib chiqishga majbur qilmokda. Dunyoning eng taxlikali va kuchlar muvozanati qisqa muddatda butunlay o'zgargan bir mintaqasida joylashgan Turkiya Respublikasi ham ro'y bergan o'zgarishlar natijasida o'z tashqi siyosatini qaytadan ko'zdan kechirish extiyojini sezmoqda. Yuz bergan o'zgarishlar natijasida Turkiyaning mintaqaviy roli va dunyoning kuch markazlari bilan munosabatlari o'zgardi. 80-yillarga qadar passiv va notekis tashqi siyosat olib borgan Turkiya, 80-yillarning ikkinchi yarmi, 90-yillarning boshidan e'tiboran, xalqaro munosabatlarda aktiv ishtirok eta boshladi.

Sovuk urush davrida G'arb va AQSh uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Turkiya sovuq urushning tugashi bilan bu davlatlar qarshisida o'z ahamiyatini biroz yo'qotdi. Kipr masalasi, suv muammosi, terrorizm kabi xususlarda yolg'iz qolganligini his qila boshladi. Turkiya Sovuq urushdan keyingi davrda ham G'arb va AQSh uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlash maqsadida yangi argumentlarni qidira boshladi, mintaqada yangi hamkorlik imkoniyatlarini qo'lga kiritishga intildi. Bu davrdan e'tiboran, Turk tashqi siyosatida ham muhim o'zgarishlar o'rtaga chiqdi. Bunga binoan, Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida belgilangan ustivor yo'nalishlarni tahlil etish mamlakatning hozirgi davrda olib borayotgan tashqi siyosatini o'rganishda katta ahamiyatga egadir.

Hozirgi paytda Turkiya Respublikasi qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilashga, ular bilan mavjud muammolarni tinchlik yo'li bilan xal etishga va turli sohalardagi hamkorlikni taraqqiy ettirishga asosiy e'tiborni qaratmoqda. Shu bilan



birga mamlakat sobiq prezidenti A.Gul tashqi siyosatda asosan, uchta ustivor yoʻnalish belgilanganligini taʼkidlaydi.<sup>1</sup>

**Birinchi ustivor yoʻnalish** - Gʻarb bilan hamkorlikdir. Bu yerda tashqi siyosatning oʻzgarmas ustivor yoʻnalishi Turkiyaning YEropa Ittifoqiga aʼzo boʻlishga intilishi, AQSh bilan munosabatlar, NATO aʼzoli va boshqa transatlantik aloqalardir. Aslida Turkiyaning gʻarb dunyosi bilan hamkorligi asosan, Usmoniyar imperiyasining inqirozga yuz tuta boshlashi bilan boshlangan jarayon boʻlib, qariyb 150 yil tarixga egadir. Sovuq urush davrida gʻarb dunyosi bilan hamkorlik mamlakat tashqi siyosatining yagona ustivor yoʻnalishi boʻlganligini aytish mumkin.

F. Sonmezoglu Turkiyaning xarbiy-siyosiy jihatdan AQSh bilan, iqtisodiy jihatdan esa Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan mustaxkam aloqalarga ega ekanligini taʼkidlaydi. Unga koʻra, Turkiyaning xarbiy imkoniyatlari va potentsiali xanuzgacha muhim boʻlib qolmoqda, iqtisodiy imkoniyatlari ham tobora ahamiyat kasb etib bormoqda.<sup>2</sup> Bu jihatdan, YEropa Ittifoqiga qoʻshilish Turkiya uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir. Turkiya-YEI munosabatlari qariyb yarim asrlik tarixga ega. 1959 yilda Turkiyaning YEIXga aʼzolik uchun murojaatidan keyin 1963 yilda ikki tomon oʻrtasida Turkiyaning aʼzoli bilan aloqali Ankara shartnomasi imzolandi. 1996 yilda esa Turkiya-YEI oʻrtasida bojxona Ittifoqi imzolandi. 1999 yildagi YEIga aʼzo davlatlarning Xelsinki sammitida Turkiyaga aʼzolik statusi berildi. 2005 yildan eʼtiboran boshlangan Turkiyaning aʼzoli buyicha muzokaralar bugungi kunda davom etmoqda.<sup>3</sup>

Iqtisodiy integratsiya, umumiy bozor kabi tushunchalarning asta-sekin butun dunyoda ragʻbat koʻra boshlashi va bu kabi xarakatlarning muvaffaqiyatiga boʻlgan ishonch Turkiyani YEI ga yanada yaqinlashtirmoqda. Shuningdek, YEI ga aʼzo davlatlar Turkiyaning tashqi tijoratida eng koʻp ulushga ega bulgan davlatlardir.

<sup>1</sup>[http://dip.cort.ru/vistup\\_tur.html](http://dip.cort.ru/vistup_tur.html)

<sup>2</sup> F. Sonmezoglu. Turk Dis Politikasinin Analizi. Istanbul. 2004. s. 998

<sup>3</sup> Турция. Анкара. 2008. с. 190-191



Yevropa tovarlarining Turkiya orkali Yaqin sharq va Afrikaga eksport qilinishi Turkiyaga katta daromad keltirishi mumkin.

Turkiyaning G'arb bilan hamkorligining boshqa jihati AQSh va NATO bilan munosabatlardir.

Sovuq urushdan keyin, sharqiy blokning cho'kishi natijasida yuzaga kelgan noaniq muhit va avtoritet bo'shlig'i mintqa va Turkiyaning xavfsizligi uchun eskiga nisbatan yanada xavfliroq bo'lgan taxdidlarni keltirib chiqardi. Ko'rfaz urushi, sobiq Yugoslaviyadagi etnik va diniy to'qnashuvlar, Ozarbayjon va Armaniston o'rtasidagi ziddiyatlar, hozirgi paytda Yaqin Sharqda, xususan, Suriyada jarayon etayotgan voqealar va bu kabi mintaqada yuzaga kelayotgan vaziyat Turkiyaning xavfsizligiga katta taxdid solmoqda. Turkiya yuqoridagi kabi ko'p tomonlama taxdidlarni AQSh bilan hamkorlikda bartaraf etishga umid qilmokda.

Global mohiyatga ega bo'lgan dunyo iqtisodiy strukturasi qo'shilish, mamlakat ichkarisida yetarli darajada sarmoyaning birikishi bilan amalga oshishi mumkin. Bu- investitsiya va tijoriy imkoniyatlarning yaratilishi natijasida bo'ladi. Bu maqsadda Turkiyaga AQSh va u tomonidan boshqarilayotgan Xalqaro valyuta fondi va Dunyo banki tomonidan beriladigan qarzlarda katta ahamiyatga egadir.

Globalashuv jarayoniga qo'shilish tashqi qarzlardan tashqari xorijiy sarmoyani Turkiyaga jalb etish bilan ham davom ettirilmoqda. 1980-2000 yillari orasida Turkiyaga kiritilgan chet-el sarmoyasi 28, 610 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu miqdorning 3,306 mlrd. dollari Amerika shirkatlariga oiddir.

Amerika sarmoyasining Turkiyaga kirishi iqtisodda ijobiy natijalarni keltirib chiqardi. 90-yillardan e'tiboran, Turk mahsulotlarining AQSh bozoriga kirishi qulaylashdi. 2000 yil e'tibori bilan AQSh Turkiyaning eksportida 30,074 mlrd. dollarlik xajm bilan 9, 2% xissaga ega bo'lib, Germaniyadan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. Importda esa AQSh 3,887 mlrd. dollarlik xajm va 7,6% xissa bilan



to‘rtinchi o‘rindadir. Turkiyaning AQSh ga eksportining 85%ini sanoat mahsulotlari tashkil etadi.<sup>4</sup> Bu shaklda AKSh Turkiyaning nafaqat an‘anaviy qishlok xo‘jalik mahsulotlari uchun, balki, rivojlanayotgan sanoat mahsulotlari uchun ham eng muhim bozorlardan biriga aylanmoqda.

Demak, xavfsizlik va iqtisodiy masalalarda AQSh bilan hamkorlik -tashqi siyosatning ustivor yo‘nalishlaridan biri xisoblanadi.

Turkiyani G‘arb bilan bog‘lagan boshqa bir unsur – NATO tashkilotidir. Turkiya sobiq tashqi ishlar vaziri A. Davutoglu NATO ning Turkiya uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi va shunday deydi: “Kelajakda asosiy tashqi siyosat muammolaridan biri Turkiyaning mintaqaviy siyosati bilan NATO ning global missiyasi o‘rtasidagi adaptatsiyadir. Ushbu adaptatsiya ratsional bar shaklda amalga oshirilmasa yo Turkiya o‘z mintaqasidan begonalashishi mumkin, yoki NATO bilan ziddiyatga kirishishi mumkin.”<sup>5</sup>

Turkiya Respublikasi tashqi siyosatining **ikkinchi muhim ustivor yo‘nalishi** **Yaqin Sharq mintaqasidir**. Sovuq urushdan keyingi davrda yuzaga kelgan strategik raqobat muxiti Turkiyaning mintaqalararo strategiyasida va Yaqin Sharq siyosatining shakllanishida asosiy e’tibor berilishi kerak bo‘lgan xususlardan biridir. Turkiyaning Yaqin sharqdagi tashqi siyosati uning Bolqonlar va Kavkazdagi tashqi siyosati bilan bevosita bog‘liqdir. Mintaqalararo o‘zaro strategik ta’sir ko‘rsatishmintaqaviy o‘yinchilarga yangi xarakat soxalarini yaratish bilan birga, yangi taxdidlar bilan ro‘para kelishni majburiy qiladi. Masalan Turkiya bu mintaqada faqat NATO a’ziligiga emas, o‘z milliy strategiyalariga asosan xarakat qilishga intilmoqda. Mintaqaviy o‘yinchilarning xarakat doirasining kengayishi, xamda, super kuchlarning xavfsizlik soyabonining torayishi yuqoridagi mintaqalararo o‘zaro ta’sir doiralarining ahamiyatini ortirmoqda. Bu jixatdan

<sup>4</sup><http://www.dtm.gov.tr/ead/SEKTOR/ulkeler/abd.xls>

<sup>5</sup>A. Davutoglu. Stratejik Derinlik. Istanbul. 2009. s.232-240



qaraganda, Turkiyaning Bolqon va Kavkaz mintaqasidagi tashqi siyosatida Yaqin Sharq katta ahamiyatga egadir.

Geosiyosiy ibora bilan ifodalaganda, Yaqin Sharq quruqlik geosiyosati jixatidan Yevroosiyoning qalbida joylashgan Heartland ni markaz qilib olgan strategiyaning Afroyevroosiyoga yo‘nalishida qulf mintaqani tashkil etadi. Shuningdek, quruqlik geosiyostining Rimland chizig‘iga tayangan kuchlar jixatidan esa mintaqa Yevroosiyoni qurshab oluvchi chiziqning markazini tashkil etmoqda. Ya’ni Yaqin Sharq mintaqasi global iqtisodiy-siyosiy va strategik muvozanatning qulfidir.<sup>6</sup>

Turkiya Respublikasining Yaqin sharq va Yevroosiy o mintaqalari bilan hamkorligi asosan, sovuq urushdan keyingi davrdan e’tiboran shakllana boshlagan va uzoq tarixga ega emas. Garchi, T.O‘zal davrida Turkiyaning Yaqin sharq davlatlari bilan munosabatlarini jonlanganligini ko‘rish mumkin, biroq, mintaqadagi beqaror vaziyat Turkiyani qaytadan g‘arbga yo‘naltirgan. Buning yaqqol misoli 1987 yilda Turkiyaning Yevropa Hamjamiyatiga to‘liq a’zolik uchun murojaatidir.<sup>7</sup> Turkiya uchun Sharq bozor jihatidan g‘arbga alternativ bo‘la olmasada, soxib bo‘lgan imkoniyatlari jihatidan katta ahamiyatga egadir.

Turkiya Respublikasi tashqi siyosatidagi **uchinchi muhim ustivor yo‘nalish Yevroosiy o mintaqasi bilan hamkorlikdir**. Ushbu hamkorlik Rossiya, hamda, Kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda Turkiya Respublikasi Rossiya Federatsiyasi bilan energetika, mudofaa, tijorat va iqtisodiy sohalarda yaqin munosabatlar o‘rnatishga intilmoqda. Rossiya Turkiyaning tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga egadir. Tabiiy gaz iste’mol qilish borasida mamlakatning Sibir va Kasbiy xavzasidagi energiya manbaalariga qaramligi kundan – kunga ortmoqda.

---

<sup>6</sup>A. Davutoglu. Stratejik Derinlik. Istanbul. 2009. s.325

<sup>7</sup> Tūrkiye 2003. Ankara., 2003 y. s.214



Turkiya tashqi ishlar Vazirligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyaning energiyaga bo'lgan extiyoji har yili 8%ga ortmoqda.<sup>8</sup>

Mintaqada xavfsizlikni ta'minlash va terrorizmga qarshi kurash masalalari Turkiya uchun muhim ahamiyatga egadir. Xarbiy mudofaa tizimini kuchaytirishga intilayotgan Turkiya Rossiyadan qurol yarog' sotib olishga yaqindan qiziqmoqda. Bundan tashqari, terrorizmga qarshi kurashda tomonlar o'rtasida o'zaro axborot almashish bo'yicha shartnoma imzolangan. 2000 yil 12 aprelda ikki tomon o'rtasida Qora dengizda terroristlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyatlarga qarshi birgalikda kurash bo'yicha hamkorlik shartnomasi imzolandi.<sup>9</sup>

Turkiyaning Yevroosiyo mintaqasi bilan hamkorligining boshqa jihati Kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlaridir. Turkiya ushbu mintaqalardagi neft va gaz zaxiralarini o'z xududi orqali dunyo bozoriga chiqarish uchun aktiv siyosat olib bormoqda. Bu sohada Turkmaniston-Eron-Turkiya-Yevropa davlatlari tabiiy gaz, Trans-Kasbiy tabiiy gaz, Ozarbayjon-Turkiya-Yevropa Ittifoqi tabiiy gaz va nihoyat Baku-Jeyxan neft quvurini qurish bo'yicha xalqaro maydonda keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda.<sup>10</sup>

Turkiya 2000 yil mart oyida «Kavkaz barqarorlik paketi» g'oyasini o'rta tashladi. Bu g'oya Ozarbayjon, Armaniston, Turkiya, Rossiya, Eron, AQSh, YEI va YEXXT ni o'z ichiga oladi. G'oyaning asosiy maqsadi G'arb davlatlariga tayangan xolda, Turkiyaning ta'sir doirasini kengaytirish va mintaqani xalqaro hamkorlik maydoniga aylantirishdan iboratdir.

Turkiya tarixiy, madaniy, diniy va umumiy til rishtalariga tayangan xolda, mintaqa davlatlarini birlashtirishga, neft va tabiiy gaz quvurlari orqali bu davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga va buning natijasida ushbu

<sup>8</sup> <http://w.w.w.mfa.gov.tr/grupa/an/policy.htm>

<sup>9</sup> T.C. Disisleri Bakanligi, "Agreement between the government of Turkey and government of Russian Federation on cooperation in Maritime Areas in Black Sea", Sayi 54, 14 Nisan 2000.

<sup>10</sup> [w.w.w.enerji.gov.tr/enerji..htm](http://w.w.w.enerji.gov.tr/enerji..htm)



davlatlarning dunyo tizimi bilan integratsiyalashuvini ta'minlashni o'z tashqi siyosatining ustivor yo'nalishi deb biladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida belgilangan ustivor yo'nalishlar nafaqat g'arb davlatlari bilan, balki sharq mamlakatlari bilan ham aloqalarni rivojlantirishga, mintaqada xavfsizlikni ta'minlashga va integratsion jarayonlarda aktiv ishtirok etishga qaratilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. A. Davutoglu. *Stratejik Derinlik*. Istanbul. 2009
2. F. Sonmezoglu. *Turk Dis Politikasinin Analizi*. Istanbul. 2004
3. Свистунова И.А. Региональная политика Турции: стратегия в отношении стран Африки // Проблемы национальной стратегии. 2018. № 4 (49). С. 67–80.
4. Турция. Анкара. 2008.
5. [http://dip.cort.ru/vistup\\_tur.html](http://dip.cort.ru/vistup_tur.html)
6. <http://www.dtm.gov.tr/ead/SEKTOR/ulkeler/abd.xls>